

## TIBBIYOT SOHASIDA ERISHILAYOTGAN YUTUQLAR

*Ergashev Mahmud Qahramon o'g'li**Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi**Ergashovmahmud513@gmail.com**Turayeva Dildora Shuhratovna**Samarqand davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi**E-mail : dildoraturayeva865@ mail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, bugungi kunda tibbiyot sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangiliklar yoritilgan. Sog'liqni saqlash sohasini tubdan takomillashtirish, xalqimizga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, shuningdek, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlod tarbiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu yo'lda misli ko'rilmagan ishlar qilinmoqda.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot, texnologiya, reproduktiv salomatlik, xalqaro tajriba, sog'lom avlod, kasallik, xalqaro tajriba, aholi, tashxislash.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida keng ko'lamli transformatsiya jarayonlari davom etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda tibbiyot sohasida bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Prezidentimiz bu borada sog'liqni saqlash tizimi mutasaddilari oldiga tegishli vazifalarni qo'ygan. Xususan, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish – eng asosiy talablardan biri. Buning uchun esa, birinchi navbatda, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish talab qilinadi.

Dunyoda epidemiologik xavf-xatar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda kasalliklarni profilaktika qilish, uni erta aniqlash, to'g'ri tashxislash, shuningdek, kasalliklarni davolashda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari ish uslubini qayta ko'rib chiqib, sog'liqni saqlash xizmatini tashkil etishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifaga aylandi. Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida bugungi kunda aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish sifati, uning samaradorligi va ommabopligi ta'minlanayapti. Shuningdek, tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o'rni va maqomini oshirish, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishga erishilmoqda.

Bizga ma'lumki Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga ko'ra, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan turkiyalik mutaxassislar guruhi jalb etildi. Hozir xorijlik ekspertlar

yurtimiz vakillari bilan hamkorlikda barcha bo'g'indagi tibbiyot muassasalarida o'rganishlar olib bormoqda. Shu maqsadda tuzilgan ishchi guruhlar tasdiqlangan reja asosida hududlarda bo'lyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni hamda «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» Davlat dasturida bu yo'nalishda keng qamrovli vazifalar belgilangan.

Ushbu chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha qator dastur va loyihalar qabul qilindi. Xususan, shoshilinch tibbiy yordam va birlamchi tibbiy-profilaktika tizimini takomillashtirish, onkologiya xizmati va xususiy tibbiyot muassasalari faoliyatini kengaytirish, farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarini arzon va sifatli dori-darmon bilan ta'minlashga oid ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fan erishayotgan yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish, tibbiyotning turli yo'nalishlarida yangi-yangi, samarador texnologiyalarni yaratish, ulardan diagnostika va davolash jarayonida oqilona foydalanishga yo'naltirilgan ishlar yanada kengaymoqda.

Salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, aholi tayanch, past xavf, o'rta xavf, yuqori xavf guruhi va boshqa guruhlariga bo'linib, mansubligiga ko'ra belgilangan muddatda tibbiy ko'rikdan o'tkazilmoqda. Shu tariqa yurtdoshlarimiz salomatligi davriy kuzatuvga olindi. Shunisi quvonarliki, tibbiyot muassasasiga o'zi mustaqil kelolmaydigan bemorlarga uyiga borgan holda tibbiy xizmat ko'rsatilayapti. Shu tariqa individual patronaj yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi kunda profilaktik ko'riklar o'rniga hududning o'ziga xos xususiyatlari va aholining guruhga mansubligidan kelib chiqib, muayyan kasalliklar bo'yicha davriy tibbiy skrining tekshiruvi o'tkazilmoqda.

Mamlakatimizda aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish maqsadida Prezidentning bir qator Farmon va qarorlari qabul qilindi. Ularga ko'ra, umumiy amaliyot shifokori mutaxassisi oilaviy shifokor, qishloq vrachlik punkti oilaviy shifokor punkti deb, qishloq va shahar oilaviy poliklinikasi esa oilaviy poliklinika deb qayta nomlandi va faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu mutaxassislarga yordam berish uchun terapiya, pediatriya, akusherlik va patronaj bo'yicha tibbiyot brigadalari tashkil etildi. Mazkur brigadalar o'zlariga birlashtirilgan oilalar kesimida "tibbiy xarita"lar shakllantirib, manzilli ish olib borishi belgilandi. Bu orqali esa tibbiyotning birlamchi bo'g'ini to'g'ridan-to'g'ri bemor bilan ishlaydigan, kasalliklarni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirilmoqda.

### Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2021. 211- bet.

2. Xalq so‘zi gazetasi. 26-aprel 2018-yil
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2.01.2024-yildagi PQ-38-sonli “Sog‘liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori.
4. Dildora Shuhratovna Turayeva. Shaxsning har tomonlama shakllanishida muloqot san’atining ahamiyati.” SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. January 2023, Volume 4, Issue 1. P-836-838
5. Turayeva Dildora Shuhratovna. The Place of Communication in Personal Life. Eurasian Scientific Herald. 2022-04-13. Volume 7. P-54-57
6. Turayeva Dildora Shuhratovna. Muloqot san’ati inson faoliyatining eng muhim vositasi sifatida. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 1(5)194-196, 2024
7. Turayeva Dildora Shuhratovna. YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI. SO‘NNGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. 2025/4/13. B-28-30
8. Aminjon Qudratovich Aymatov . THE LAW OF INCREASING THE ROLE OF SUBJECTIVE FACTORS IN THE FORMATION OF AESTHETIC ATTITUDE TO NATURE . Academia Globe: Inderscience Research. Volume 2, Issue 5, May, 2021. P-548-553
9. Aminjon Qudratovich Aymatov. SOME ASPECTS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN ENVIRONMENTAL CONSCIOUSNESS AND AESTHETIC PERCEPTION OF THE ENVIRONMENT. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 2017, Issue 04, Volume 48. P-79-82
10. Aminjon Qudratovich Aymatov. Turayeva Dildora Shuhratovna. International Journal of Advanced Research in ISSN: 2278-6236 Management and Social Sciences. Vol 10/No 12/Dec 2021. P-5-9
11. Turayeva Dildora Shuhratovna . International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Hosted from London, The UK. May 10, 2022.
12. Yoldasheva Xurshida, & Turayeva Dildora Shuhratovna. (2025). TIBBIY EKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 90(1), 369-371. <https://journalss.org/index.php/new/article/view/8954>